

ERKIN A'ZAMNING "JANNAT O'ZI QAYDADIR" ASRIDAGI FRAZEOLOGIZMLAR TAHLILI

Xudaybergenova Nilufar

Xorazm viloyati Urganch davlat universiteti

Filologiya fakulteti, o'zbek tili yo'nalishi talabasi

Annotatsiya:

Mazkur maqola asardagi frazemalarning ma'no va xususiyatlari va ularning mohirona qo'llanganligi, shuningdek, iboralarining asardagi o'rni hamda frazeologizmlarning variantlari, sinonimlari, o'shashlari to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar:

Iboralar, o'xshash iboralar, sinonim frazemalar.

Ma'lumki, frazeologizmlar doim tayyor holda qo'llaniladigan butun bir gapga to'g'ri kelishi mumkin. Frazeologizmlar o'ziga xos lisoniy birliklar sifatida XX asr ikkinchi yarimida boshlab ko'lab ilmiy tadqiqotlarning ob'yekti bo'lib, kelmoqda. Frazeologiya esa lingvistik yo'nalish sifatida Shvetsiyalik olim Sh.Ballinomi bilan bog'liq¹. Frazeologizmlar bu iboralar bo'lib, ular frazemalar deb ham ataladi. Frazemalarni frazeologiya bo'limi o'rganadi. Frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi. Frazema ko'chma ma'noli turg'un konstruksiyadir. Frazema ham leksema kabi lug'aviy birlik sanaladi, ammo o'zining ifoda va mazmun planlarida qator belgilari bilan leksemadan farq qiladi². Frazeologik sinonimiya bir necha frazemaning bitta frazeologik ma'no atrofida birlashishidir. ³Frazeologik antonimiya esa, ikki frazemaning o'zaro zid ma'no ifodalashidir. ⁴

Erkin A'zam serqirra ijodkor. U o'z asarlarida ko'plab ibora va maqollardan unumli foydalangan. Asarlarini yanada ta'sirchan va kitobxonlarga qiziqarli bo'lishi uchun, ularni ibora va shu kabi fikrni lo'nda, aniq ifodalovchi elementlar bilan boyitgan. Erkin A'zamning "Jannat o'zi qaydadir yoxud Jiydalidan chiqqan Jo'raqul" drammatik qissasida qo'llangan frazemalarni tahlil qilish orqali bunga ayon bo'lamiz.

Domla : Yo'q xotin, siz gapni chalkashtiryapsiz. Mustaqillik boshqa, ozodlik tushunchasi bir boshqa, ijtimoiy adolat tenglik g'oyalari – boshqa! Axir, milliy mustaqil mamlakatda ham adolatsizlik, bedodlik hukm surishi mumkin-ku. Misol kerakmi sizga?.. Bilgingiz kelsa, men ijtimoiy adolat, insoniy tenglik tarafdoriman, xolos. Zinhor-bazinhor kechagi istibdodning emas! Qolaversa, odamzod muayyan bir g'oyadan charchasa yoki ijtimoiy tabaqalashuv, xaqsizlik haddan oshsa, jamiyatda muvozanat buziladi. Ana shunda islohot yo inqilob zarurati tug'ilib, mulk qo'ldan qo'lga o'tadi. Huv Oktyabr inqilobi chog'ida shunday bo'lgan, bilasiz.

1. Xonim: Og'zingizdan bol tomadi-ya, domla! ⁵

"Og'zingizdan bol tomadi-ya, domla!" – bu yerda ishlatilgan "og'zidan bol tommoq" iborasining ma'nosi shirinsuxan bo'lmoq, shirinsuxanlik qilmoq ma'nosini anglatadi. Mazkur jumlada bu frazema asar qahramoni "Xonim" tomonidan "domla"ga aytiladi. Domla o'zining mustaqillik, ozodlik va inqilob haqida aytgan gaplarini shu darajada yaxshi izohlaydiki, va mazkur iborani xonim obrazi javob sifatida ishlatadi.

Domla. Yashang, intiling! Shaharda tinchlikmi ishqilib?

Tursuniy. Tinchlik bo'lmay nima bo'lardi? Har qadamda posponlarimiz! Hamma yoq suv quygandek...(taajub aralash.) Boya ham so'radingiz-a shu gapni, domla, tinchlikmi o'zi? ⁶

¹ Sh.Bill. Fransuz stilistikasi. So'zlashuv tili va betakalluf nutq. Fransuz tilidan I.Mirzayev tarjimai. T: 2009, 79-bet

² H. Jomolxonov. Hozirgi o'zbek tili. Toshkent: Talqin, 2005, 216-bet.

³ O'sha asar. 222-bet.

⁴ O'sha asar. 223-bet.

⁵ E. A'zam. Jannat o'zi qaydadir.- T: Sharq, 2007, 162-bet

⁶ O'sha asar. 167-bet

“Hamma yoq suv quygandek...” – mazkur frazema hech qanday tovush- sharpa yo‘q, tinchlik degan ma‘nosini bildiradi. Ushbu iboraning varianti: suv sepganday. Tursiniy obrazi orqali taajub aralash bu ibora domla obraziga javob tariqasida aytiladi. Adib Tursiniy obrazi orqali mazkur ibora hamma yoq tinch, tinchlik deb o‘z gapini lo‘nda ifodalaydi.

Domla (dangaliga). Ya‘ni? Qaysi jihatdan?

Tursuniy (qizarib-bo‘zarib). O‘zimning ustozimsiz, domla, aytaveray: o‘smoqchiman, kar‘yera qilmoqchiman! Dotsent atalib sho‘ltillab yuraverish ham jonga tegdi. Bugungi zamonda o‘zagidan olmasangiz, oyoq ostida qolib ketar ekansiz... ⁷

Mazkur jumalarda ishlatilgan “jonga tegmoq” iborasi joniga tegmoq, bezor bo‘lmoq kabi ma‘nolarni bildiradi. Tursuniy dotsent unvonidan bezigani va Do‘xtirlik unvonini olishni xohlayotgani va bu zamon talabi ekanligini ifodalash uchun “jonga tegmoq” iborasi qo‘llanilgan. Shuningdek, “oyoq ostida qolmoq”- iborasi oyoq osti qilinmoq, tahqirlandi ma‘nolarini beradi. Bu iboraning varianti: oyoq osti qilinmoq, oyoq osti qildirmoq. O‘xshashi: yerga urmoq.

Domla. Ey xotin, seni ado qilgan shu Bo‘ston bo‘ldi aslida. “Bo‘ston undoq dedi”, “Bo‘ston bundoq qildi”... Bo‘ston, Bo‘ston... Shuni eshitsam, ko‘nglim ayniydigan bo‘lgan, xudo haqqi. Bu yoqda – manovi, ukajoningiz!..

Xonim. O‘sha Bo‘ston dugonam bo‘lmaganida, menga biznes sirlarini o‘rgatmaganida, siz-u biz bu yerda ochimizdan...⁸

“Shuni eshitsam, ko‘nglim ayniydigan bo‘lgan, xudo haqqi” – mana bu gapdagi “ko‘ngli aynimoq” iborasining birinchi ma‘nosi, ovqatdan ko‘ngli aynimoq deganidir. Bu iboraning variant: ko‘ngil (i) ni aynitmoq va sinonimi: ko‘ngl (i) ozdi. Ushbu iboraning ikkinchi ma‘nosi, (“ovqatdan” boshqa narsadan). Tabiatiga yoqmagan tufayli ijirg‘anmoqdir, asarda xuddi shu ma‘nosi qo‘llangan. Domla obrazi Bo‘ston obrazini xushlamasligi ya‘ni uni yoqtirmasligini ushbu ibora orqali ifodalaydi va bu matnga yanada ko‘rk joziba bag‘ishlagan. Adib bu iborani o‘rniga “Shu Bo‘stonni xushlamayman” desa ham bo‘lardi, lekin adib asarida iboradan foydalanishni ma‘qul ko‘rgan, bu esa asarni o‘quvchiga yanada qiziqarli va ta‘sirchan qilgan.

Jiydaliy (taajub bilan). Iya, qaytaga zo‘r bo‘libdi-ku! Mustaqillik-u ozodlikka nima yetsin! Ikki karra akademik bo‘lsalar ham kam!

Tursuniy (engsasi qotibroq). Endi bo‘lolmaydilar. Zamon o‘zgarib ketdi-da, aka! Ustoz o‘sha zamonning odami edilar. Bo‘lganda ham eng zo‘ri, eng nomdori! Eh-he, u davrlarni bilsangiz! Manaman degan allomalari ham ustozimizning og‘zilariga qarab turardi!.. ⁹

“Manaman degan allomalari ham ustozimizning og‘zilariga qarab turardi!..” – mazkur jumlada ishlatilgan “og‘z (i) ga qaramoq” iborasining birinchi ma‘nosi tinglamoq, nima deyishini diqqat bilan kutmoq kabi ma‘nolarni bildiradi. Ushbu iboraning o‘xshashi: og‘z (i) ga qaratmoq degan ma‘noni anglatadi. Ikkinchi ma‘nosi esa, o‘z bilgicha ish qilmay, kimningdir ko‘rsatmasini kutmoq deganidir. O‘xshashi: og‘z (i) ni poylamoqdir. Adib asrida “og‘z (i) ga qaramoq” iborasini o‘z bilganicha ish qilmay, kimningdir ko‘rstmasini kutmoq ma‘nosida qo‘llagan. U “maslahat so‘rardi” desa ham bo‘lardi, lekin ibora matnni boytgan va Erkin A‘zam frazemaga murojaat qilgan.

Domla. (nochor). Mayli, mayli ishondik. Lekin it jonivor ham biror yoqqa jo‘naganida ham yalog‘iga bir qarrilib qaraydi-ku! Siz-u bizning ota-onamiz o‘sha yerda yotibdi. Qavm-qarindosh o‘sha yerda. Bormaganimizga necha yillar bo‘ldi. Ularni bir ziyorat qilmasdan, “Qaydasan, Amerika?” deb indamay jo‘nayversak, arvohtar chirqillab qolmaydimi? Ular ham yo‘l bermasa...

Xonim (qat‘iy). Siz – o‘zingiz bilasiz, xo‘jayin. Men bormayman. Borolmayman. Qanday qilib ketay, ayting? Bu yoqda shuncha tashvish yugur-yugur! Xaridorni zo‘rg‘a ko‘ndirib turibman o‘zi, qo‘ldan chib ketsa!.. Bu uyni tezroq gumdon qilish kerak. Rahmatjon u yoqda kutib turibdi-ya! Bir haftaga qolmasdan joy topib xabarini yetkazmoqchi edi... ¹⁰

Mazkur jumalarda ishlatilgan “qo‘ldan chiqmoq” iborasining birinchi ma‘nosi, kimningdir hukmidan, ixtiyoridan chiqib ketdi, ikkinchi ma‘nosi esa, bitdi(qurilish,yozish, tikish kabilar)

⁷ O‘sha asar. 168-bet

⁸ E. A‘zam. Jannar o‘zi qaydadir.- T: Sharq, 2007,176-bet.

⁹ O‘sha asar 181-bet.

¹⁰ E. A‘zam. Jannar o‘zi qaydadir.- T: Sharq, 2007,192-bet

deganidir. Bu frazema gapda xonim obrazi tomonidan xaridorlarga nisbatan ishlatilib, xaridorlar savdo qilmay qo'yadi, kasot bo'laman degan fikrni bildiradi. Ham-da bu jumalardan va ishlatilgan frazemadan xonim obrazining naqadar pul, mol-mulkka bo'lgan munosabati ochib berilgan, ya'ni ushbu asar qahramoni xarakter xususiyatlari iboralar ishlatishi orqali yoritilgan.

“Ha-a, ana shunday bo'ladi, jonginam! O'tniki – o'tga, suvniki – suvga! Ko'zingizni yog' bosib, ja-a shishinib ketuvdingiz! Ajab bo'pdi, xo'b bo'pti! Mana, endi maqtagan Pensil'vaniyangizga so'ppayib bitta o'zingiz ketasiz!...”¹¹

Mazkur jumalarda qo'llangan “Ko'zini yog' bosib” frazemasini “takabburlanmoq; tanib tanimaganga olmoq” ma'nolarni bildiradi. Bu iboraning sinonimi “ko'z (i) ni shira bosdi”. Bu yerda ishlatilgan frazemani xonim obrazi Bo'ston obrziga otadi. Bo'ston obrazi ko'p pul topganligidan manmansirab takabburlanadi va o'rni kelganda Xonim obrazi “ ko'z (i) ni yog' bosdi” frazemasini qistirib o'tadi. Bu o'rinlarda esa, adib Bo'ston va Xonim orqali jamiyatdagi mana shunday ko'zini yog' bosgan insonlarning ahvolini ko'rsatib bergan.

Xonim. (O'qirayib). Hoy, bola bugun senga bir balo bo'lganmi o'zi? Gapirgan gapi zahar, ilmoqli-ya! Yo kayf-payfing bormi?

Melis. Kayf? Bir martagina og'zimga olib, tavba qilganmiz, bilasiz!.. Ena bu Amerikangizda necha yil yashamoqchisiz o'zi? ¹²

Bu o'rinlarda qo'llangan “og'ziga olmoq” jumlasini o'z ma'nosida qo'llangan, ya'ni ichimlikni og'ziga olmoq, iste'mol qilmoq. Bu iboraning omonimi gapirmoq, sinonimi esa, “tilga olmoq”, kimnidir gapirmoq degan ma'nolarni beradi. Adib “Melis” obrazi orqali bugungi kundagi mast odamning ahvolini yoritgan.

Melis. Ketsa ketaversin! Bu yil ham unvon tegmay qoldi – alamzadda u. Borib Amerika Qo'shma shtatlarida xizmat ko'rsatgan artist bo'lmoqchi shekilli. Mayli o'zi biladi. Muhabbat Shamayeva Nyu Yorkdami restoran ochgan deb eshitaman. O'sha yerda tungi mijozlarning ko'nglini ovlab yurar...

Xonim (achchiqlanib). Og'zingni yum-ey, sharmanda! Odam o'z xotinini ham... ¹³

Bu yerda Melis tomonida “oq kaptar” ga nisbatan ishlatgan “ ko'ngl (i) ni ovlamoq” frazemasini o'ziga moyil qilish uchun intilmoq degan ma'noni ifodalaydi. Bu iboraning variant: ko'ngil ovlamoq, o'xshashi: ko'ngl (i) ni topmoq, kimnidir o'ziga moyil qilmoq deganidir. Melisning xotini “Oq kaptar” Amerikaga ketishga shu qadar qanot chiqarib turadiki, mazkur asarni o'qigan kitobxonga ma'lum. “Oq kaptar” dan norozi, alamzada Melis mazkur iborani aytadi. Bunga javoban Xonim obrazi “og'z (i) ni yummoq” frazemasini ishlatiladi. Bu frazemaning tub ma'nosi gapirishni to'xtatmoq – gapirishdan to'xtamoq deganidir. Ushbu iboraning o'xshashi: dam (i) chiqmadi – dam (i) ni chiqarmaslik. Mana shu ibora Melisga nisbatan aytilgan bo'lib, bu frazemaning ishlatilish sababi Melisning gaplarini to'xtatish. Adib bu o'rinlarda hamma narsadan norozi odamlarning muomalasini yoritgan.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol davri o'zbek nosrlari orasida Erkin A'zam ijodi alohida e'tiborga loyiq. Adibning ijodiy faoliyati nihoyatda serqirra va rang-barang . “ Jannat o'zi qaydadir “ asarida bugungi zamonda bir oila a'zolarining orasida yuz bergan voqealar qalamga olingan. Adib o'z asarlari mazmunini iboralar bilan kengaytirgan. Erkin A'zam asarlarida frazeologizmlarni turli o'rinlarda turli xil ma'noda qo'llagan. Bu esa adibning mahoratidan dalolat beradi, hamda asarlarini xalqqa tushunarli va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E. A'zam. Jannat o'zi qaydadir.- T: Sharq, 2007
2. Sh.Bill. Fransuz stilistikasi. So'zlashuv tili va betakalluf nutq. Fransuz tilidan I.Mirzayev tarjimai. T: 2009,79-bet
3. H. Jomolxonov. Hozirgi o'zbek tili. Toshkent:Talqin,2005,216-bet.
4. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati.- T: O'qituvchi,1978.

¹¹ O'sha asar, 197-bet

¹² E. A'zam. Jannat o'zi qaydadir.- T: Sharq, 2007, 206-bet

¹³ O'sha asar, 207-bet